

BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA SURXON VOHASIDA KECHGAN ETNOSIYOSIY JARAYONLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA)

Muhammadiyev Zohid Odinamuhamat o'g'li

*Termiz davlat universiteti Etnografiya etnologiya va antropologiya
ixtisosligi stajyor-tadqiqotchisi*

<https://orcid.org/0009-0000-0398-5051>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining janubiy hududi hisoblangan Surxon vohasida kechgan etnosiyosiy jarayonlar tahlil qilingan. Tadqiqotda Boysun, Sherobod, Denov va Termiz-Pattakesar hududlarining etnik tarkibi, aholi joylashuvi, migratsion jarayonlar hamda Rossiya imperiyasining mintaqadagi siyosiy ta'siri natijasida yuzaga kelgan demografik o'zgarishlar o'rganilgan. Tadqiqot natijalari vohada o'zbeklar va tojiklar asosiy etnik qatlamni tashkil etganligini, XX asr boshlarida esa ruslar, tatarlar va boshqa millat vakillarining soni ortib borganligini ko'rsatadi. Shuningdek, etnosiyosiy munosabatlarning shakllanishida iqtisodiy aloqalar, qabila tizimi va ma'muriy boshqaruv muhim omil bo'lganligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, Buxoro amirligi, etnosiyosiy jarayonlar, etnik tarkib, migratsiya, Boysun, Sherobod, Denov, Termiz, demografiya.

Аннотация: В данной статье проанализированы этнополитические процессы, происходившие в Сурханском оазисе — южном регионе Бухарского эмирата — в конце XIX – начале XX веков. В исследовании рассмотрены этнический состав населения, особенности расселения, миграционные процессы, а также демографические изменения, вызванные политическим влиянием Российской империи в регионе, на примере Байсунского, Шерабадского, Денауского и Термез-Паттакесарского районов. Результаты исследования показывают, что основными этническими группами населения оазиса являлись узбеки и таджики, тогда как в начале XX века наблюдалось увеличение численности

русских, татар и представителей других национальностей. Кроме того, установлено, что важную роль в формировании этнополитических отношений играли экономические связи, племенная система и административное управление.

Ключевые слова: Сурханский оазис, Бухарский эмират, этнополитические процессы, этнический состав, миграция, Байсун, Шерабад, Денау, Термез, демография.

Abstract: This article analyzes the ethno-political processes that took place in the Surkhan Oasis, the southern region of the Emirate of Bukhara, during the late nineteenth and early twentieth centuries. The study examines the ethnic composition of the population, settlement patterns, migration processes, and demographic changes caused by the political influence of the Russian Empire in the region, focusing on the territories of Boysun, Sherabad, Denau, and Termez-Pattakesar. The research findings indicate that Uzbeks and Tajiks constituted the main ethnic groups in the oasis, while the number of Russians, Tatars, and representatives of other ethnic communities increased in the early twentieth century. The study also reveals that economic relations, the tribal system, and administrative governance played a significant role in the formation of ethno-political relations in the region.

Keywords: Surkhan Oasis, Emirate of Bukhara, ethno-political processes, ethnic composition, migration, Boysun, Sherabad, Denau, Termez, demography.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida murakkab

ijtimoiy-siyosiy va demografik jarayonlar yuz berdi. Ayniqsa, amirlikning janubiy qismi hisoblangan Surxon vohasi geografik joylashuvi, etnik tarkibining xilma-xilligi hamda savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi bilan ajralib turgan. Mazkur hudud Markaziy Osiyoning shimoliy va janubiy qismlarini bog'lovchi strategik makon sifatida tarixiy taraqqiyotda muhim o'rin egallagan.

Surxon vohasida o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, arablar, qozoqlar, yahudiylar va boshqa etnik guruhlarining yashashi natijasida o'ziga xos etnosiyosiy muhit shakllangan. XIX asr oxirlariga kelib Rossiya imperiyasining mintaqadagi siyosiy ta'sirining ortishi vohaning etnodemografik holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu sababli mazkur davrdagi etnosiyosiy jarayonlarni o'rganish Surxon vohasining tarixiy taraqqiyotini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon vohasida kechgan etnosiyosiy jarayonlarni tahlil qilish, aholi tarkibidagi o'zgarishlar hamda ularning ijtimoiy-siyosiy omillarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mazkur tadqiqotda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining janubiy hududi hisoblangan Surxon vohasida kechgan etnosiyosiy jarayonlarni o'rganishda tarix fanida keng qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillari tashkil etdi.

Avvalo, tarixiylik tamoyili asosida Surxon vohasida yashagan etnik guruhlarining shakllanishi, joylashuvi va o'zaro munosabatlari ularning tarixiy rivojlanish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Bu orqali Boysun, Sherobod, Denov va Termiz hududlarida yuz bergan etnodemografik o'zgarishlarning sabablari hamda oqibatlarini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Qiyosiy-tarixiy usul yordamida vohaning turli hududlaridagi etnik tarkib va aholi joylashuvi o'zaro taqqoslandi. Jumladan, Boysun, Sherobod va Denov beklilari hamda Termiz-Pattakesar hududlaridagi aholi tarkibi,

milliy nisbatlar va etnik guruhlarining hududiy joylashuvi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu usul orqali hududlar o'rtasidagi umumiy va o'ziga xos jihatlar aniqlandi.

Tadqiqotda statistik tahlil usuli ham muhim o'rin tutdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid aholi ro'yxatlari, ma'muriy-statistik hisobotlar hamda 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish materiallari asosida voha aholisining soni, milliy tarkibi va joylashuv xususiyatlari tahlil etildi. Statistik ma'lumotlar etnosiyosiy jarayonlarning miqyosini va dinamikasini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, manbashunoslik va tarixshunoslik tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning manbaviy asosini Rossiya imperiyasi davrida tuzilgan statistik to'plamlar, 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish materiallari hamda B.X. Karmisheva, D.N. Logofet, P. Vasilev, I.L. Yavorskiy, B.I. Iskandarov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Ushbu manbalar tanqidiy yondashuv asosida o'rganilib, ulardagi ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligi tekshirildi.

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv asosida etnosiyosiy jarayonlar aholi tarkibi, migratsion harakatlar, iqtisodiy aloqalar, ma'muriy boshqaruv va tashqi siyosiy omillar bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Bu esa Surxon vohasidagi etnosiyosiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tadqiqot natijalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon vohasi Buxoro amirligining etnik jihatdan eng murakkab va rang-barang hududlaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar va etnografik manbalar tahlili vohada etnosiyosiy jarayonlarning aholi joylashuvi, migratsion harakatlar va ma'muriy-hududiy boshqaruv bilan chambarchas bog'liq holda kechganligini aniqlash imkonini berdi.

Boysun bekligida etnik tarkibning o'ziga xos xususiyati sifatida tojik va o'zbek aholining aralash yashashi kuzatiladi. XX asr boshlariga oid statistik ma'lumotlarga ko'ra, Boysun rayonidagi 21 ta qishloq yig'inida 4352 ta o'zbek va 2672 ta tojik oila xo'jaligi istiqomat

qilgan. Ayniqsa, Sayrob (522 ta), Shayit (505 ta), Pasurxi (459 ta), Darband (475 ta) va Xo‘jabulg‘on (327 ta) qishloq yig‘inlarida tojik aholining salmog‘i yuqori bo‘lgan. Bibishirin, Bog‘ibola, Chinor va Ko‘kchi qishloqlarida asosan chig‘atoy tojiklari yashagan bo‘lsa[2], Shayit, Gaza, Qorabayin va Sho‘rsoy qishloqlarida ular qo‘ng‘irot urug‘iga mansub o‘zbeklar bilan birgalikda istiqomat qilgan[1].

Termiz va Pattakesar hududlari bo‘yicha olingan natijalar ushbu markazlarning voha etnosiyosiy hayotida alohida o‘rin tutganligini ko‘rsatadi. XIX asr oxirlarida Pattakesar va Termiz atrofida jami 20 651 nafar aholi yashagan bo‘lib, shundan 4 284 nafari Termiz shahri hissasiga to‘g‘ri kelgan[3]. Aholining 68,1 foizini o‘zbeklar, 21,2 foizini turkmanlar va 7,7 foizini boshqa millat vakillari tashkil etgan. XX asr boshlariga kelib esa ruslar, tatarlar, qozoqlar va boshqa etnik guruhlarining soni ortib borgan. Bu jarayon Rossiya imperiyasining mintaqadagi siyosiy va harbiy faolligi hamda yangi rus posyolkalarining tashkil etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan[4].

Sherobod bekligida ham etnik tarkibning murakkabligi kuzatiladi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, aholining 73,1 foizini o‘zbeklar va 27,9 foizini tojiklar tashkil qilgan. XX asr boshlarida Poshxo‘rt (337 ta), Zarabog‘ (436 ta), Qizilolma (42 ta) va Qizilboy (35 ta) qishloq yig‘inlarida tojik aholining sezilarli ulushi qayd etilgan. Shu bilan birga, Rabatak, Istara va Xo‘jaulkan hududlarida boshqa millat vakillariga mansub oila xo‘jaliklari ham mavjud bo‘lgan[4].

Denov bekligi vohaning eng yirik ma‘muriy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida ajralib turgan. XX asr boshlarida bu hududda 51 816 nafar aholi ro‘yxatga olingan bo‘lib, ulardan 8 490 ta o‘zbek, 1 687 ta tojik va 142 ta boshqa millatga mansub oila xo‘jaliklari qayd etilgan. Tojiklar asosan Vaxshivor (279 ta oila), Katta Qarshi (108 ta oila), Kenagas (21 ta oila) va Jiydabuloq (33 ta oila) hududlarida istiqomat qilgan. Denov markazi va Beshkapa manzilgohlarida esa ruslar, tatarlar va yahudiylardan iborat oilalar yashagan[6].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tadqiqot natijalari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon vohasida

kechgan etnosiyosiy jarayonlar mintaqaning geografik joylashuvi, tarixiy taraqqiyoti, iqtisodiy aloqalari va siyosiy boshqaruv tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligini ko‘rsatadi. Olingan ma‘lumotlar vohaning etnik tarkibi bir xil bo‘lmaganligini, aksincha, turli etnik guruhlarining uzoq tarixiy davrlar davomida o‘zaro aloqalari natijasida shakllangan murakkab demografik tizim mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Surxon vohasida o‘zbeklar asosiy etnik guruh sifatida yetakchi mavqega ega bo‘lgan bo‘lsa-da, tojiklar ayniqsa Boysun, Darband, Sayrob, Pasurxi, Panjob va Vaxshivor kabi tog‘li hamda tog‘oldi hududlarda muhim demografik qatlamni tashkil etgan. Bu holat B.X. Karmisheva tomonidan ilgari surilgan janubiy vohalarda etnik guruhlarining tabiiy-geografik muhitga mos ravishda joylashganligi haqidagi ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan ma‘lumotlar ham tojik aholisining asosan suv manbalari va tog‘li hududlarga yaqin qishloqlarda, o‘zbeklarning esa vohaning tekislik va sug‘orma dehqonchilik rivojlangan hududlarida ko‘proq yashaganligini ko‘rsatadi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, vohada kuzatilgan etnik xilma-xillik ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga emas, aksincha iqtisodiy hamkorlik va o‘zaro integratsiyaning rivojlanishiga xizmat qilgan. Boysun, Denov, Sherobod va Termizdagi bozorlar, hunarmandchilik markazlari hamda savdo yo‘llari turli etnik guruhlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlagan. Natijada etnik mansublikdan qat‘i nazar, aholi vakillari umumiy xo‘jalik faoliyatida faol ishtirok etganlar. Bu esa Buxoro amirligining janubiy hududlarida etnosiyosiy barqarorlikning saqlanishiga ma‘lum darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari Rossiya imperiyasining XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mintaqaga kirib kelishi etnosiyosiy vaziyatga sezilarli ta‘sir ko‘rsatganligini ham ko‘rsatadi. Ayniqsa, Termiz va Pattakesar hududlarida rus harbiy garnizonlari va rus posyolkalarining tashkil etilishi natijasida aholi tarkibida yangi etnik qatlamlar shakllana boshlagan. Bu jarayon vohaning etnik tarkibini yanada

murakkablashtirgan bo'lsa-da, mintaqada yangi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo'lgan. Shu jihatdan Surxon vohasidagi etnosiyosiy jarayonlar Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik siyosati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, vohada qabila va urug' munosabatlarining saqlanib qolganligi ham etnosiyosiy jarayonlarning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Qo'ng'iroq, qatag'on, yuz, kenagas va boshqa urug' birliklari nafaqat ijtimoiy hayotda, balki mahalliy boshqaruv tizimida ham muhim rol o'ynagan. Ayrim hollarda etnik identifikatsiyadan ko'ra urug'-qabila mansubligi kuchliroq ahamiyat kasb etgan. Bu esa Buxoro amirligi davridagi siyosiy boshqaruvning o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari bilan XIX asr oxiridagi statistik ma'lumotlarni qiyoslash vohada etnik tarkibning nisbatan barqaror bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq XX asr boshlarida migratsion jarayonlarning kuchayishi, yangi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar hamda Rossiya siyosatining ta'siri natijasida ayrim hududlarda etnik nisbatlarda muayyan o'zgarishlar yuz bergan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Surxon vohasi Buxoro amirligining siyosiy, iqtisodiy va demografik jihatdan muhim hududlaridan biri bo'lib, bu yerda kechgan etnosiyosiy jarayonlar mintaqaning tarixiy taraqqiyotida alohida o'rin tutgan. Tadqiqot davomida olingan natijalar vohada

etnik tarkibning murakkab va ko'p qatlamli bo'lganligini, aholi tarkibida o'zbeklar yetakchi mavqeni egallagan bo'lsa-da, tojiklar, turkmanlar, arablar, ruslar, tatarlar, yahudiylar va boshqa etnik guruhlar ham muhim o'rin tutganligini ko'rsatdi.

Tahlillar Boysun, Sherobod, Denov va Termiz-Pattakesar hududlarida etnik guruhlarining joylashuvi tabiiy-geografik sharoitlar, tarixiy migratsion jarayonlar hamda xo'jalik faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lganligini tasdiqladi. Xususan, tog'li va tog'oldi hududlarda tojiklar, vohaning tekislik va sug'orma dehqonchilik rivojlangan qismlarida esa o'zbek aholisining salmog'i yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda etnik guruhlarining aralash yashashi uzoq davom etgan iqtisodiy va madaniy aloqalarning natijasi sifatida shakllangan.

Shuningdek, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining mintaqadagi siyosiy ta'siri kuchayishi natijasida vohada yangi etnodemografik o'zgarishlar yuz bergan. Termiz va Pattakesar hududlarida rus posyolkalari va harbiy garnizonlarning tashkil etilishi aholi tarkibining yanada rang-baranglashuviga olib kelgan hamda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Tadqiqotning ilmiy natijalari shuni ko'rsatadiki, Surxon vohasida kechgan etnosiyosiy jarayonlar etnik guruhlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar, migratsion harakatlar, qabila-urug' tizimi va tashqi siyosiy omillar ta'sirida shakllangan. Ushbu jarayonlar keyingi davrlarda vohaning demografik rivojlanishi, hududiy boshqaruv tizimi hamda millatlararo munosabatlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – Москва: Наука, 1976. – 323 с.
2. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Кн. III. Бухарско-афганская граница. – СПб., 1909. – 412 с.
3. Азимов М. Термиз тарихи (энг қадимги даврлардан XXI аср бошигача). – Қарши: Насаф, 2011. – 384 б.

4. Материалы по районированию Средней Азии. Территория и население Бухары и Хорезма. Кн. I. Ч. I. Бухара. – Ташкент, 1926. – 318 с.
5. Турсунов С.Н. ва бошқалар. Шеробод тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Yangi nashr, 2014. – 224 б.
6. Материалы по районированию Узбекистана. Вып. I. – Самарқанд: ЦКР УзССР, 1926. – 286 с.